


Asaka tuman
“Davlat xizmatlari markazi”
tomonidan 2024-yil

“23” sentyabr
25793-son reestr raqami bilan

“RO‘YXATGA OLINGAN”



“Uz-Dong Won Ko.” QK AJ aksiyadorlarining
2024 yil “30” 09 kungi navbatdan
tashqari 137 00421 yig‘ilishi qarori bilan
TASDIQLANGAN.



“Uz-Dong Won Ko.” qo‘shma korxonasi aksiyadorlik jamiyati

USTAVI
(yangi taxrirda)

Asaka shahri – 2024 yil.

1. UMUMIY QOIDALAR.

1.1. Ushbu Ustav O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (matn davomida – Qonun), "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720 sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, "Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish" komissiyasining 2015 yil 31 dekabr 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. "Uz-Dong Won Ko." aksiyadorlik jamiyati(matn davomida "Jamiyat" deb nomlanadi) o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, ushbu Ustav, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi (2014-yil 6-may, O'RQ-370-son), "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720 sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, "Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish" komissiyasining 2015 yil 31 dekabr 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boradi.

1.3. Jamiyatning to'liq firma nomi:

Davlat tilida: - **"Uz-Dong Won Ko." O'zbekiston-Janubiy Koreya qo'shma korxonasi aksiyadorlik jamiyati;**

Kiril alifbosida: **"Уз-Донг Вон Ко." Ўзбекистон Жанубий Корея қўшма корхонаси акциядорлик жамияти;**

Rus tilida: - **Акционерное общество совместное Узбекское-Южнокорейское предприятие "Уз-Донг Вон Ко.";**

Ingliz tilida: - **Uzbek-South Korean joint venture stock company "Uz-Dong Won Co."**

1.4. Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi:

Davlat tilida: - **"Uz-Dong Won Ko." QK AJ;**

Kiril alifbosida **"Уз-Донг Вон Ко" ҚҚ АЖ;**

Rus tilida: - **АО СП "Уз-Донг Вон Ко.";**

Ingliz tilida: - **JV SC "Uz-Dong Won Co."**

1.5. Jamiyatning joylashgan yeri (pochta manzili): O'zbekiston Respublikasi, Andijon viloyati, Asaka shahri, Farg'ona ko'chasi, 57 uy. Indeks: 170200.

1.6. Jamiyatning rasmiy veb-sayti: www.uzdwn.uz

1.7. Jamiyatning elektron pochta manzili: info@uzdwn.uz.

1.8. Jamiyatning Pitnak shahridagi vakolatxonasining manzili: Xorazm viloyati, Xozarasp tumani, Pitnak shahri, Sanoat hududi.

2. JAMIYATNING HUQUQIY HOLATI VA JAVOGBARLIGI.

2.1. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Jamiyat cheklanmagan muddatga tuziladi.

2.2. Ustav kapitali aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti hisoblanadi.

2.3. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2.4. Jamiyat o'zining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq firma nomiga ega bo'ladi va qisqartirilgan firma nomiga ega bo'lishi mumkin. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan yumaloq muhrga ega bo'lishi lozim. Muhrda bir vaqtning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

2.5. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

2.6. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

2.7. Jamiyat aksiyadorning yoki har qanday manfaatdor shaxsning talabiga ko'ra uch ish kuni ichida ularga Jamiyatning ustavi, shu jumladan ustavga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan tanishib chiqish imkoniyatini berishi shart. Jamiyat aksiyadorning talabiga ko'ra unga Jamiyat ustavining ko'chirma nusxasini berishi shart.

2.8. Jamiyat aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

2.9. Jamiyat filiallar tashkil etishga va vakolatxonalar ochishga haqli.

2.10. Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida filiallar tashkil etish va vakolatxonalar, hamda sho'ba xo'jalik jamiyati ochish mumkin. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, filiallar va vakolatxonalar, hamda sho'ba xo'jalik jamiyati joylashgan yerdagi mamlakatning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.11. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

2.12. Aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarining o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

2.13. Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

2.14. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

2.15. Davlat va uning organlari Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, huddi shuningdek Jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

3. JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI VA MAQSADI.

3.1. Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan foyda olishdir.

3.2. Jamiyatning asosiy faoliyat (kundalik xo'jalik faoliyati) doirasi O'zbekiston Respublikasi, MDH va boshqa mamlakatlar hududida yengil avtomobil, avtobus, furgonlarning qismlarini va boshqa mahsulotlarini ishlab chiqarishi, sotib olishi, terish, yig'ish, marketing qilinishi, taqsimlanishi va sotilish orqali moliyaviy-xo'jalik faoliyatini muvofiqlashtirish, uning samarali ishlashini tashkil etish bilan xizmat ko'rsatish hisoblanadi.

3.3. O'z faoliyatining maqsad va vazifalariga erishish uchun Jamiyat quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

Fuqaro, korxonalar, tashkilot va muassasalarga mahsulot ishlab chiqarish va sotish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish;

-Savdo-vositachilik, savdo-sotiq faoliyati bilan shug'ullanish;

-Ma'lumot va reklama xizmatlarini ko'rsatish;

-Xalq iste'mollarini sotib olish, ishlab chiqarish, tayyorlash va sotish;

-Ishlab chiqarish, texnik, ilmiy, konsultativ, konsalting, marketing, savdo lizing va boshqa turli xizmatlarni bajarish;

-Belgilangan tartibda amaldagi qonunlarga asoslangan holda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

3.4. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini ham amalga oshirishga haqli.

3.5. Maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishni talab qiladigan faoliyat turlari Jamiyat tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziya olingandan keyin amalga oshiriladi.

3.6. Jamiyat kerakli tashkilotlar bilan kelishilgan holda, hamda u yerda yashaydigan aholining sharoitlari va manfaatlarini hisobga olgan holda va mazkur hududning ekologik vaziyatini hisobga olgan holda o'z faoliyatini tashkillashtiradi.

4. JAMIYATNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

4.1. Jamiyat quyidagi huquqlarga ega:

- mintaqalararo hamkorlikni va tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
 - xorijiy korxonalar va tashkilotlar bilan o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish;
 - Respublika hududida va undan tashqarida filiallar, vakolatxonalar, qo'shma korxonalar va boshqa yangi korxonalarni tuzish va ta'sis qilish;
 - o'quv markazlari bilan hamkorlikda shartnomalar asosida malakali mutaxassislarni tayyorlash ishlarini o'tkazish;
 - birgalikdagi faoliyat shartnomalari asosida Jamiyat va uning filiallarining ishiga chet el investitsiyalarini jalb etish (shu holda olingan foydani taqsimlash tartibi shartnomada alohida belgilanadi);
 - O'zbekiston Respublikasi hamda undan tashqari hududlarda yuridik va jismoniy shaxslar bilan barcha turdagi bitimlarni amalga oshirish;
 - O'zbekiston Respublikasi hududida ko'char va ko'chmas mulkni, mulkiy huquqlarni va aqliy mulkini mulk qilib sotib olish, ijaraga berish va olish;
 - uyushmalar, ittifoqlar, konsorsiumlar va birlashmalariga a'zo bo'lish;
 - belgilangan tartibda banklarda turli, shuningdek valyuta hisob raqamlarini ochish, bank kreditlari va ssudalarini olish, amaldagi qonun hujjatlari asosida har qanday to'lov shakllarini berish va akseptlash, ayirboshlash tartibiga asosan vakolatli banklar orqali o'z mablag'larini ayirboshlash;
 - o'zining ishlab-chiqarish va xo'jalik faoliyatini hamda ijtimoiy rivojlantirish fondlarini mustaqil rejalashtirish;
 - Jamiyat ustavida belgilangan masalalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish-texnik yo'nalishidagi mahsulotlar, xom-ashyo materiallar, transportni sotib olish;
 - shartnomalar asosida mutaxassislarni ishga jalb etish, ish o'rinlariga xorijiy menejerlar nomzodlarining ishtirok etishiga imkon yaratilgan holda har yili tanlovlar o'tkazish;
 - boshqaruv lavozimlariga rahbar lavozimlarga tanlovlar reglamenti tasdiqlash, unda tanlov e'lon qilish, tanlovning obyektiv mezonlari ularning yakuni bo'yicha yangicha fikrlovchi, zamonaviy talablarga javob beruvchi yuqori malakaga ega bo'lgan, shuningdek, xorijiy menejerlarni tanlab olish jarayonlari bayon etish;
 - raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarish va uni tashqi bozorga eksport qilishda ishtirok etuvchi strategik xorijiy investorlarni jalb qilish, amaldagi qonunchilikka rioya qilgan holda, xorijiy sheriklar bilan shartnomalar, bitimlar va boshqa xil huquqiy hujjatlarni tuzish;
 - Aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirilishi va ularning aloqalari uchun zamonaviy vositalar, internet tarmog'i ma'lumotlari, qulay usullar, imkoniyatlar boshqa zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;
 - Oshkor etilishi shart bo'lgan axborotlar ya'ni faoliyat samaradorligi, sof foyda, dividendlar miqdori va boshqa axborotlarni aksiyadorlik jamiyati sayti va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa manbalarda o'zbek, rus va aksiyador hamda boshqa manfaatdor tomonlarga, shu jumladan, xorijiy investorlarga qulay bo'lgan boshqa tillarga tarjimai bilan birgalikda e'lon qilinishini ta'minlash;
 - Manfaatlar qarama-qarshiligi bilan bog'liq nizoli vaziyatlarni hal etish uchun manfaatdor bo'lmagan uchinchi shaxsni tayinlash. Manfaatlar qarama-qarshiligini hal qilish bo'yicha masalalarni ichki audit xizmati yoki vakolatni kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi(a'zolari)ga yuklash;
 - Tanlovlarda (kim-oshdi savdolarida, savdolarida) qatnashish;
 - homiylilik va hayriya faoliyatni amalga oshirish;
 - qonun hujjatlariga binoan o'z xodimlari uchun qo'shimcha mehnat ta'tillari, qisqartirilgan ish kuni, ish tartibi va boshqa ijtimoiy imtiyozlarni belgilash.
- 4.2. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar oshkor etilishi mumkin emas.

4.3. Jamiyatning mansabdor shaxslari va xizmatchilari Jamiyatning tijorat sirini oshkor qilganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

4.4. Jamiyatning tijorat siri toifasiga kiritilgan axborot bilan Jamiyatda ishlash tartibi va u bilan ishlash tartibini buzganlik uchun javobgarlik Jamiyat ijro organi tomonidan belgilanadi.

5. JAMIYAT USTAV KAPITALINING MIQDORI, UNI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI.

5.1. Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak.

5.2. Jamiyatning ustav kapitali Jamiyat mol-mulkining Jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

5.3. Jamiyat ustav kapitalining miqdori **297 000 000** (ikki yuz to'qson yetti million) so'mni yoki ustav kapitali shakllantirilgan paytdagi Markaziy bankning kursi bo'yicha **2 700 000** (ikki million yetti yuz ming) AQSH dollarini tashkil qiladi va nominal qiymati **1100** (bir ming bir yuz) so'm bo'lgan **270 000** (ikki yuz yetmish ming) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat.

5.4. Jamiyatning aksiyadorlari:

- | | |
|-------------------------------------|--|
| 1. "UzAuto Korea Co. Ltd." | 245 000 (ikki yuz qiriq besh ming)
dona – 90,74%. |
| 2. Tashkuziyeva Salima Muladjanovna | 25 000 (Yigirma besh ming) dona – 9,26%. |

Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish

4. Jamiyatning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

5. Qo'shimcha aksiyalar e'lon qilingan Jamiyat ustavida belgilangan aksiyalarning soni doirasidagina Jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.

6. Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdori nominal qiymati 1 100 (bir ming bir yuz) so'm bo'lgan 10 000 000 (o'n million) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat, jami summasiga 11 000 000 000 (o'n bir milliard) so'm.

7. Jamiyatning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilihi tomonidan qabul qilinadi.

8. Jamiyatning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

9. Jamiyatning ustav kapitalini uning o'z kapitali hisobidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirishda bu aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning kapitali ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, Jamiyatning kapitalini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

10. Jamiyatning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish narxi (aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish), aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

11. Jamiyatning aksiyalariga haq to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pul vositasida amalga oshiriladi.

12. Jamiyatning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda

Jamiyat ustavida ko'rsatilgan e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak.

b) Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish

13. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

14. Jamiyatning ustav kapitalini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga yo'l qo'yiladi.

15. Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

16. Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

17. Jamiyat o'zi joylashtirgan aksiyalarni aksiyadorlar umumiy yig'ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish yo'li bilan Jamiyat ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, shuningdek ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra olishga haqli.

18. Agar muomalada qolgan aksiyalarning nominal qiymati Jamiyat ustav kapitalining eng kam miqdoridan kamayib ketadigan bo'lsa, Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarining umumiy sonini kamaytirish maqsadida ularning bir qismini olish yo'li bilan Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas.

19. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish maqsadida ularni olish yo'li bilan Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qabul qilingan qarori asosida Jamiyat tomonidan olingan aksiyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

20. Aksiyalarni olish to'g'risidagi qarorda olinadigan aksiyalarning turlari, Jamiyat oladigan har bir turdagi aksiyalarning soni, aksiyalarni olish narxi, aksiyalar haqini to'lash shakli va muddati, shuningdek aksiyalar qancha muddatda olinishi belgilab qo'yilishi kerak.

21. Jamiyat tasarrufiga o'tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlarni sanab chiqishda hisobga olinmaydi, ular bo'yicha dividendlar hisoblab chiqarilmaydi. Keyinchalik qayta sotish maqsadida Jamiyat tasarrufiga o'tgan aksiyalar ular Jamiyat tasarrufiga o'tgan paytdan e'tiboran bir yildan kechiktirmay realizatsiya qilinishi kerak, aks holda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim. Ko'rsatilgan muddatda realizatsiya qilinmagan aksiyalar bekor qilinishi kerak.

6. JAMIYAT AKSIYALARINING TURLARI VA ULAR BO'YICHA DIVIDENDLAR TO'LASH TARTIBI.

6.1. Jamiyatning aksiyasi - o'z egasining Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, Jamiyatni boshqarishda ishtirok etishga va Jamiyat tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.

6.2. Jamiyat aksiyalari egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular turiga ko'ra oddiy aksiyalardir.

6.3. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi — aksiyador deb e'tirof etiladi.

6.4. Jamiyatning oddiy aksiyalari ovoz beruvchi aksiyalar bo'lib, ularning egasiga dividendlar olish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida va Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

6.5. Dividend jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

6.6. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

6.7. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

6.8. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

6.9. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

6.10. Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

6.11. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

6.12. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

6.13. Dividendlar Jamiyatning Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

6.14. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.

✓ 6.15. Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra Jamiyat ixtiyorida qoladi.

6.16. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorining yozma talabiga ko'ra unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga ayirboshlab, mablag'larni norezident aksiyador taqdim etgan bank hisob varag'iga o'tkazib berishi shart.

6.17. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlarining reestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

6.18. Jamiyatning dividendlarni to'lashga doir cheklavlari:
jamiyat ustav kapitalining hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;

agar dividendlar to'lanadigan paytda jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;

agar jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas. Ushbu moddada ko'rsatilgan holatlar tugatilgach, jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to'lashi shart.

6.19. Jamiyat dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi. Jamiyat to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining va jamiyatning rasmiy veb-saytlarida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

7. JAMIYAT AKSIYALARINI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA SHARTLARI

7.1. Jamiyat aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ochiq va yopiq obuna vositasida joylashtirishga haqli.

7.2. Jamiyat oddiy aksiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati Jamiyat ustav kapitalining yigirma foizidan oshmasligi lozim.

7.3. Jamiyat tomonidan aksiyalarni joylashtirish qimmatli qog'ozlar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin qimmatli qog'ozlar chiqarilishining shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

7.4. Jamiyat tomonidan Jamiyatning qo'shimcha aksiyalarini va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

7.5. Jamiyatning joylashtirilgan aksiyalari egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz (naqdsiz) shaklida chiqarilgan aksiyalardir.

7.6. Aksiyalarning ochiq obunasi faqat qimmatli qog'ozlarning birja bozorida va uyushgan birjadan tashqari bozorida o'tkaziladi.

7.7. Aksiyalar ochiq obuna yo'li bilan joylashtirilganda emitent qimmatli qog'ozlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi xabarni risolada mavjud ma'lumotlardan manfaatdor istalgan shaxsning ushbu ma'lumotlardan foydalanish tartibini ko'rsatgan holda nashr qilishi shart. Bunda, qimmatli qog'ozlar qo'shimcha chiqarilishini qimmatli qog'ozlar chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi xabar nashr etilganidan keyin kamida ikki hafta oldin joylashtirish taqiqlanadi.

7.8. Jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi.

7.9. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirishga haqli bo'lib, buning natijasida Jamiyatning ikki yoki undan ortiq aksiyasi huddi shu turdagi bitta yangi aksiyaga ayirboshlanadi.

7.10. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni maydalashni amalga oshirishga haqli bo'lib, buning natijasida Jamiyatning bir aksiyasi huddi shu turdagi ikki yoki undan ortiq aksiyaga ayirboshlanadi.

7.11. Maydalangan yoki yiriklashtirilgan taqdirda kasriy aksiyalarning paydo bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

7.12. Jamiyat o'zi joylashtirgan qimmatli qog'ozlar erkin ayirboshlanishi mumkin bo'lgan aksiyalar beradigan huquqlarni cheklash haqida ushbu qimmatli qog'ozlar egalarining roziligisiz qaror qabul qilishga haqli emas.

7.13. Jamiyat o'zi chiqargan aksiyalar bo'yicha ularni qayta sotib olish sharti bilan bitimlar tuzishga, shuningdek o'zi chiqargan aksiyalarni ishonchli boshqaruvga berishga haqli emas.

8. AKSIYADORLAR SOTAYOTGAN AKSIYALARNI OLISHGA DOIR IMTIYOZLI HUQUQNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI VA MUDDATLARI.

8.1. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega.

8.2. Aksiyador, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga ega.

8.3. Jamiyatning boshqa aksiyadorlari tomonidan sotilayotgan aksiyalarni uchinchi shaxsga taklif etilayotgan narx bo'yicha va shartlar asosida, aksiyadorlarning har biriga tegishli aksiyalarning soniga mutanosib ravishda olish yuzasidan imtiyozli huquqqa ega. Agar ushbu jamiyatning boshqa aksiyadorlari o'z imtiyozli huquqlaridan foydalanmagan bo'lsa, jamiyatning aksiyadorlari sotayotgan aksiyalarni olish yuzasidan jamiyat imtiyozli huquqqa ega bo'ladi.

8.4. O'z aksiyalarini sotayotgan aksiyador aksiyalarini sotish niyati to'g'risida boshqa aksiyadorlarni aksiyalarning narxini va uchinchi shaxsga taklif etish shartlarini ko'rsatgan holda to'g'ridan to'g'ri yoxud jamiyat orqali yozma shaklda xabardor qilishi shart.

8.5. Aksiyadorlar sotayotgan aksiyalarni olishga doir imtiyozli huquqdan foydalanish muddati aksiyalar sotuvga qo'yilgan paytdan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

8.6. Aksiyador tomonidan o'ziga tegishli aksiyalar imtiyozli huquq buzilgan holda sotilgan taqdirda, jamiyatning istalgan aksiyadori va (yoki) jamiyat bunday qoidabuzarlik to'g'risida aksiyador yoki jamiyat bilgan yoxud bilishi lozim bo'lgan paytdan e'tiboran uch oy ichida o'ziga sotib oluvchining huquq va majburiyatlari o'tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega.

8.7. Aksiyalarni olishga bo'lgan ushbu imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

8.8. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugaganidan keyin qolgan aksiyalar va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan tartibda jamiyat tomonidan realizatsiya qilinadi.

9. JAMIYAT AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

Oddiy va imtiyozli aksiya egalari bo'lgan aksiyadorlar huquqlari O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun talablariga asoslangan xolda amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida jamiyatda ularning orasidan minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.

✓ Minoritar aksiyadorlar boshqaruv organi faoliyatiga asossiz hujjatlar talab qilish, maxfiy ma'lumotlarni, savdo sotiq sirlari ishlatish yo'li bilan boshqaruv organi faoliyatiga qarshilik kilmasliklari kerak.

9.1. Jamiyat aksiyadorlari qo'yidagi huquqlarga ega:

- Jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;
- depozitariyidagi depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;
- Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- Jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;

Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- bir foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a'zolicigiga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqini taqdim etilishi;

- o'ziga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

-qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urtalash.

9.2. Aksiyadorlar qonun hujjatlariga va Jamiyat ushbu ustavga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

9.3. Bir turdagi aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi.

9.4. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ushbu ustavga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq Jamiyat mol-mulkingning bir qismini olish huquqiga ega.

9.5. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda depozitariy tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

9.6. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularni oluvchiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

9.7. Jamiyat aksiyadorlarining majburiyatlari:

-mazkur ustavda va qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda, miqdor va usullarda aksiyalarning narxini to'lashga;

-mazkur ustavda nazarda tutilgan chegeralarda, Jamiyat boshqaruv organlarining qarorlariga bo'ysunishga;

-Jamiyatning maxfiy tusda bo'lgan axborotlarini oshkor qilmaslikka.

9.8. Aksiyadorlar mazkur ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladilar.

10. JAMIYATNING ZAXIRA FONDI.

10.1. Jamiyat sof foyda hisobidan zaxira fondini hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aniqlanadigan, Jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlarni tashkil etadi.

10.2. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Jamiyatning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.

10.3. Jamiyat ustav kapitalining o'n besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi.

10.4. Jamiyat zaxira fondiga ushbu ustavning 10.3-bandida belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan besh foiz miqdorida ajratmalar o'tkazadi.

10.5. Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, majburiy ajratmalardan tiklanadi.

11. JAMIYAT BOSHQARUVINING TUZILMASI.

11.1. Jamiyat boshqaruv organlari - Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi hisoblanadi.

12. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI.

12.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

12.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

-Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida jamiyat aksiyadorlari reestrida qayd etilgan aksiyadorlar, ularning vakolatli vakillari, jamiyat auditori yoki uning vakili, kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi va boshqaruv a'zolari qatnashishlari shart.

-Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida bir foizidan kam bo'lmagan miqdoriga egalik qiluvchi aksiyadorlar umumiy yig'ilishning kun tartibi takliflar, foyda taqsimoti, boshqaruv organlariga nomzodlar yoki ularni umumiy yig'ilish o'tkazgunga qadar almashtirish to'g'risidagi takliflar berishi mumkin.

-Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida bir foizidan kam bo'lmagan miqdoriga egalik qiluvchi aksiyadorlar moliyaviy yil tugagandan so'ng to'qson kun kechiktirmay aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishning kun tartibiga savollar kiritishi, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'ziligiga ularning belgilangan son tartibini o'zgartirmagan holda nomzodlar takliflarini berishi mumkin.

12.3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini saylash to'g'risidagi, jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (Bosh direktor) raxbari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek, shuningdek Jamiyatning yillik hisobotini, jamiyat ijroiya organi va kuzatuv kengashining jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga

erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari yillik biznes-rejasini tasdiqlash, Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash jamiyatning yillik hisoboti va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.

12.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

12.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

-jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

-jamiyatni qayta tashkil etish;

-jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

-jamiyat kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

-e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

-jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish;

-jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish;

-o'z aksiyalarini olish;

-jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

-jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini (taftishchisini) saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi (taftishchi) to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

-jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

-jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

-jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish;

-jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

-qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

-jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

-imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida ushbu Qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;

-ushbu Qonunning 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

-aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

-aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

-jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

-jamiyat tomonidan yirik va affillangan shaxslar bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish. Yirik bitim tuzishda ushbu Ustavning 13.6. moddasining "x" bandi talablari bajarilgandagina amalga oshiriladi;

-majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

12.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

12.7. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, qonunchilik va ushbu ustavda belgilangan hollar bundan mustasno.

12.8. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

12.9. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuning 59-moddasi birinchi qismining ikkinchi, to'rtinchi, oltinchi va o'n to'rtinchi xatboshilarida, 84-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida hamda 88-moddasining beshinchi qismida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

12.10. Yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Jamiyat Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

12.11. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.

✓ 12.12. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar yig'ilish bayonnomasi imzolangan kundan ikki ish kunidan kechiktirmay, shuningdek ovoz berish yakunlari ushbu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

12.13. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

12.14. Jamiyat aksiyadorning talabiga ko'ra aksiyadorga u aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilganligi to'g'risida axborot taqdim etishi shart.

12.15. Jamiyat aksiyadorlarining reestriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi, mazkur reestr shakllantirilgan sanada unga kiritilmay qolgan shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan yoki reestrni shakllantirishda yo'l qo'yilgan xatolar tuzatilgan hollar bundan mustasno.

12.16. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

12.17. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- Jamiyatning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;
- umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;
- Jamiyat aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sana;
- umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar;
- umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi.

12.18. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyatning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan Jamiyat taftish komissiyasining va auditorlik tashkilotining xulosasi, Jamiyat Kuzatuv kengashining ijroiya organi raxbari bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, shartnomani qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi to'g'risidagi xulosasi, shuningdek Jamiyatning Kuzatuv kengashi hamda taftish komissiyasi a'zolariga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, Jamiyatning ustaviga

kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasi yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi loyihasi kiradi.

12.19. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin o'ttiz kundan kechiktirmay, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Jamiyat Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

12.20. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

12.21. Jamiyat Kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga nomzodlar ko'rsatish to'g'risida takliflar kiritilganda, shu jumladan o'zini o'zi nomzod qilib ko'rsatilgan taqdirda nomzodning ismi-sharifi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod Jamiyat aksiyadori bo'lsa), shuningdek nomzodni ko'rsatayotgan aksiyadorlarning ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

12.22. Jamiyat Kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Jamiyat Kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorlarga (aksiyadorga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kundan kechiktirmay yuboriladi.

12.23. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

12.24. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, taftish komissiyasining yozma talabi, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi.

12.25. Jamiyat taftish komissiyasining yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

12.26. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sabablari ko'rsatilgan holda ta'riflangan bo'lishi kerak.

12.27. Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyat taftish komissiyasining yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra chaqiriladigan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.

12.28. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadordan (aksiyadorlardan) chiqqan taqdirda, bu talabda umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) ismi-sharifi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni, turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

12.29. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

12.30. Jamiyatning taftish komissiyasi yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab taqdim etgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida Jamiyat Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak.

12.31. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 (ellik) foizidan

ko'proq ovozigga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

12.32. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

12.33. Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 40 (qirq) foizidan ko'proq ovozigga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

12.34. Kvorum bo'lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi yigirma kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestriga muvofiq aniqlanadi.

12.35. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish «Jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasi — bitta ovoz» prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi, Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari bundan mustasno.

12.36. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish, ovoz berish byulletenlari orqali amalga oshiriladi. Ovoz berish byulletenlarining shakli va matni Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan chaqirilmagan hollar bundan mustasno. Ovoz berish byulleteni umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan aksiyadorga (uning vakiliga) beriladi.

12.37. Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

12.38. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi.

12.39. Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

12.40. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan eri, pasportiga oid ma'lumotlar) bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan holda beriladi.

12.41. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

12.42. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarining umumiy soni;
- umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarining soni;
- umumiy yig'ilishning raisi (rayosati) va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

12.43. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatilishi lozim.

12.44. Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishi Jamiyatning «Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida»gi Nizom asosida chaqiriladi va o'tkaziladi.

13. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

13.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

13.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni 3 (uch) kishidan iborat.

13.3. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

13.4. Jamiyat ijroiya organi raisi va a'zolari Jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

13.5. Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a'zolari jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

13.6. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- a) Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- b) aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;
- d) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;
- e) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;
- f) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish va ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- g) Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash masalalarini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;
- h) mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- i) Jamiyatning ijroiya organini (Bosh direktor) saylash (tayinlash)ga tavsiya etish, uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish masalasini kuyish;
- j) jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlash;
- k) korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;
- l) Jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;
- m) ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;
- n) Jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;
- o) auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- p) Jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;
- q) dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- r) Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;
- s) Jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;
- t) Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;
- u) qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash;
- v) avval ro'yxatdan o'tkazilgan emissiya risolasi va aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish;
- x) qonunchilikda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va Jamiyat affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish. Yirik bitim jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki kuzatuv kengashi ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilganidan keyin jamiyatning ijroiya organi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda yirik bitim tuzish

to'g'risidagi qaror mol-mulkning qonun hujjatlariga muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o'rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi;

y) Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

z) Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

o') aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash.

g') Komplayens xizmati boshlig'ini jamiyatning Kuzatuv Kengashi yig'ilishi qarori bilan "O'zavtosanoat" AJ Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti tavsiyasi (rozilik) asosida belgilangan tartibda ishga tayinlash;

sh) Kuzatuv Kengashi tomonidan xar chorakda ijro organining Jamiyat biznes-rejasining bajarilishi va tasdiqlangan parametrlari asosida samaradorlikning muhim ko'rsatkichlar (SMK) bajarilishi to'g'risidagi hisobotini eshitish, Ijro organining hisobotini eshitish natijalariga ko'ra, ijro etuvchi organi faoliyatini va ularga to'lanadigan haq miqdorini belgilash.

13.7. Jamiyatning kuzatuv kengashi (yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi) affillangan shaxs bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimni (bitimlarni) ma'qullash haqida qaror qabul qilishga haqli.

13.8. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga qonunchilikka muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

13.9. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

13.10. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

13.11. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

13.12. Jamiyatning Kuzatuv kengashi o'z raisini Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

13.13. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi.

13.14. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

13.15. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Zaruriyatga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlislari ham o'tkazilishi mumkin. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Jamiyat Kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi, ijroiya organi a'zosining va Jamiyatning besh foizdan kam bo'lmagan aksiyadorlarning talabiga ko'ra chaqiriladi.

13.16. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining yetmish besh foizidan kam bo'lmashligi kerak. Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori Kuzatuv Kengashga saylangan a'zolarining kamida yetmish besh foizi ishtirok etganida qonuniy hisoblanadi.

13.17. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Jamiyat ustavida nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo'lgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

13.18. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

13.19. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

13.20. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

13.21. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

13.22. Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi, bunda Kuzatuv kengashidan chiqib ketgan a'zolarining ovozi inobatga olinmaydi.

13.23. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi va Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay tuziladi.

Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

-majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

-majlisda hozir bo'lgan shaxslar;

-majlisning kun tartibi;

-ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

-qabul qilingan qarorlar.

13.24. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolandi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

13.25. Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

13.26. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning ijroiya organiga Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

13.27. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va (yoki) Kuzatuv kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarining o'rni qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarning miqdorlari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi.

13.28. Kuzatuv Kengashi a'zolari o'zlarining lavozim majburiyatlarini halol, shuningdek Jamiyat manfaatlari yo'lida ular eng yaxshi deb hisoblaydigan usul bilan amalga oshirishga majburlidirlar.

13.29. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari, o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.

13.30. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyat va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

13.31. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

13.32. Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z ishini amaldagi qonunchilik, ushbu ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlangan Jamiyatning «Kuzatuv kengashi to'g'risida»gi Nizom asosida amalga oshiradi.

14. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI.

14.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati yakka tartibdagi ijroiya organ – Bosh direktor tomonidan amalga oshiriladi. Ijroiya organi faoliyatiga Jamiyat Bosh direktori rahbarlik qiladi.

14.2. Jamiyat Bosh direktori yakka tartibdagi ijroiya organ asosidagi ijro etuvchi organ hisoblanib, uning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat ustavi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

14.3. Bosh direktor va boshqaruv a'zolari tomonidan ushbu ustav va mehnat shartnomasi shartlari qo'pol ravishda buzilsa, yoxud Jamiyat biznes-rejasining tasdiqlangan ko'rsatkichlarni bajarilishi buzilgan hollarda va ularning harakatlari (harakatsizligi) natijasida Jamiyatga keltirilgan zararlari sababli ular bilan tuzilgan shartnoma Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

14.4. Jamiyat Bosh direktori vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi.

14.5. Jamiyat Bosh direktori O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy xujjatlari va mazkur Ustav bilan berilgan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlari va Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan masalalardan tashqari barcha masalalarni O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy xujjatlari va jamiyatning ichki me'yoriy xujjatlari talablariga rioya etilgan xolda hal qilish vakolatiga ega.

14.6. Jamiyat Bosh direktori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

14.7. Jamiyat ijro organining rahbarini (Bosh direktor) tayinlash to'g'risidagi qaror, odatda, yangicha fikrlaydigan, siyosiy va ma'naviy yetuk, axlokan pok, davlat siyosatini yaxshi tushunadigan, davlat tilini biladigan, zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali rahbarlar, shuningdek, xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinadi.

14.8. Jamiyat Bosh direktori Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilish qarori bilan uch yillik muddatga saylanadi (tayinlanadi). Jamiyat direktorining, huquq va majburiyatlari "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy xujjatlari, jamiyat ustavi asosida jamiyat bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi.

14.9. Bosh direktor bilan mehnat shartnomalarni Jamiyat nomidan Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi yoki Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs imzolaydi.

14.10. Jamiyat xodimlari mazkur ustavga va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Jamiyat Bosh direktori bilan mehnat shartnomasini tuzadilar.

14.11. Jamiyat Bosh direktoriga to'lanadigan haq miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi va shartnomada belgilangan bo'lishi kerak.

14.12. Jamiyatning Bosh direktori vazifasini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga faqat Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

14.13. Jamiyat Bosh direktori bilan tuziladigan shartnomada ularning jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda Jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak.

14.14. Jamiyat Bosh direktori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

14.15. Jamiyat Bosh direktori huzuridagi ijroiya organining majlisi zaruriy hollarda o'tkaziladi.

14.16. Jamiyat Bosh direktor xuzuridagi ijroiya organi majlisi uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni, agar majlisda Bosh direktor va uning a'zolari qatnashsa, hal qilishga haqlidir.

14.17. Jamiyat Bosh direktori majlisida qarorlar bir ovozdan majlisda qatnashayotgan Bosh direktor va uning a'zolari tomonidan qabul qilinadi.

14.18. Jamiyat Bosh direktori va majlis a'zolari Jamiyat faoliyatiga taaluqli masalada qarorlar qabul qilishlarida o'zaro kelishmovchilik holatlari yuzaga kelsa, ular ushbu masalani yakuniy qaror qabul qilinishi uchun Kuzatuv kengashiga topshiradilar.

14.19. Majlisida bayonnoma yuritiladi. Majlis bayonnomasi Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'zolariga, shuningdek auditorga ularning talabiga ko'ra beriladi.

14.20. Jamiyat Bosh direktorining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

-mazkur ustav va Kuzatuv kengashi tomonidan o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq Jamiyatning ishiga samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;

-aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;

-Jamiyatning tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;

-Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;

-Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;

-Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxatini belgilash;

-Jamiyat nomidan O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy xujjatlari va jamiyatning ichki me'yoriy xujjatlari talablariga rioya etilgan xolda bitimlar tuzish, Jamiyatning sho'ba xo'jalik jamiyati va filiallari yoki vakolatxonasi rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;

-filial va sho'ba xo'jalik jamiyati faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash va ularning biznes-rejalarini va bajarish to'g'risidagi hisobotlarini tasdiqlash;

-Jamiyat filiallari va sho'ba xo'jalik jamiyatlarining shtat jadvallarini tasdiqlash, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;

-O'zining vakolatlari doirasida Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;

-Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;

-o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol –mulki va pul mablag'larini tasarruf etish;

-o'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy talablariga rioya etgan xolda mol-mulkni sotib olish va mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish bilan bog'liq bitimlar (umumiy qiymati qaror qabul qilingan sanada Jamiyat sof aktivlarining 15 foizigacha tashkil etadigan bitimlar yoki o'zaro bog'lik bir qancha bitimlar) tuzish;

-Jamiyat sho'ba xo'jalik jamiyatlari, vakolatxonalari va filiallari uchun majburiy bo'lgan qaror, buyruq va farmoyishlar chiqarish;

-Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qilish;

-banklarda hisob raqamlar shu jumladan valyuta hisob raqamlarini ochish va Jamiyatning bank va boshqa moliya hujjatlarida birinchi imzo vakolatiga ega bo'lish;

-o'zining vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy talablariga rioya etgan xolda, Jamiyat mijozlari, korxonalar va tashkilotlar bilan shartnomalar va kontraktlarni imzolash va bitimlar tuzish, korxonalar xodimlari bilan ularning moddiy va ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib qarz berish shartnomalarini tuzish va tasdiqlash;

-Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;

-Jamiyat Bosh direktori qonunchilik, ushbu ustav va Jamiyatning me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

14.21. Jamiyat Bosh direktorining majburiyatlari:

-Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqish, ularni tashkil etish va bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish;

-Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash;

-Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali harakatini ta'minlash;

-Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ular mehnatini muhofaza qilinishini ta'minlash;

-o'z vakolatiga tegishli ishlarning holati to'g'risidagi axborotni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga va Jamiyat Kuzatuv kengashiga belgilangan muddatda taqdim etish;

-Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida qatnashish, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish;

-O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish;

-qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, zarur holati va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;

-Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlar Jamiyatning Kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi yoki Jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etish;

-Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash;

-xizmat yoki tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning Jamiyat xodimlari tomonidan saqlanishini ta'minlash;

-Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlash, Jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan eng yaxshi foydalanish choralarini ko'rish;

-davlat statistika hisoboti va buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;

-Jamiyat Bosh direktori qonunchilik, ushbu Ustav, mehnat shartnomasi va Jamiyatning me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega;

-jamiyatda O'zbekiston Respublikasining qonunlari va talablariga rioya etilishini ta'minlash.

14.22. Jamiyat Bosh direktorining huquqlari:

-Jamiyat xodimlarini ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

-ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llaydi, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlaydi;

-Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

-Jamiyat Bosh direktori, qonunchilik, ushbu ustav va Jamiyatning me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa xuquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

14.23. Jamiyat Bosh direktori o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bulishi lozim.

14.24. Jamiyat Bosh direktori qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq Jamiyat oldida javobgardir.

14.25. Jamiyat ijro organi O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy xujjatlariga, mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Ijroiya organi to'g'risida"gi Nizom asosida ish olib boradi.

15. JAMIYATNING TAFTISH KOMISSIYASI, ICHKI AUDIT XIZMATI VA AUDITORLIK TASHKILOTI.

15.1. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga taftish komissiyasi saylanadi. Jamiyat taftish komissiyasi 2 (ikki) kishidan iborat.

15.2. Jamiyat taftishchisiga yoki taftish komissiyasi a'zolariga doir malaka talablari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi. Ayni bir shaxs ayni bir Jamiyatning taftish komissiyasi tarkibiga (taftishchilikka) ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

15.3. Jamiyat taftish komissiyasining yozma talabiga ko'ra Jamiyat ijroiya organida mansabni egallab turgan shaxslar Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga taqdim etishi shart.

15.4. Jamiyat taftishchisi yoki taftish komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishi, shuningdek ayni shu Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlashi mumkin emas.

✓ 15.5. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish taftish komissiyasining, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Jamiyat Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

15.6. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra Jamiyatning taftish komissiyasi xulosa tuzadi, bu xulosada:

Jamiyatning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchligiga doir baho;

buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.

15.7. Taftish komissiyasi Jamiyatda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va Jamiyat ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqadi.

15.8. Jamiyat taftish komissiyasining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

-yozma talab asosida amaldagi qonunchilikga muvofiq aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish;

-aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining kun tartibiga masalalar kiritish;

-Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisini chaqirish;

-Jamiyat boshqaruvi majlisining bayonnomasini talab qilish;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalar.

15.9. Jamiyat taftish komissiyasining vakolatlari amaldagi qonunchilik va mazkur ustav bilan belgilanadi.

15.10. Jamiyat taftish komissiyasi faoliyatining tartibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan «Jamiyat taftish komissiyasi to'g'risida»gi Nizomda belgilab qo'yiladi.

15.11. Aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming barobaridan ko'p bo'lgan jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.

15.12. Jamiyatning ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, Jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi. Ichki audit xizmati ichki nazoratni hamda 50 foizdan ziyod ulushi AJga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan xam nazoratni amalga oshiradi.

15.13. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

15.14. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.

15.15. Auditorlik tashkiloti Jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

16. JAMIYATNING HISOBI VA HISOBOTI, HUJJATLARNI SAQLASH, YILLIK HISOBOTLARNI TUZISH, TEKSHIRISH VA TASDIQLASH TARTIBI.

16.1. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.

16.2. Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek Jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik Jamiyat ijroiya organining zimmasida bo'ladi.

16.3. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Jamiyatning yillik hisoboti ko'rib chiqiladi.

16.4. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan o'ttiz kundan kechiktirmay Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

16.5. Jamiyatning aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga taqdim etadigan yillik hisobotidagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag'idagi ma'lumotlarning to'g'ri ekanligi Jamiyatning taftish komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

16.6. Jamiyatning moliyaviy hisobotida ko'rsatilgan va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag'idagi ma'lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari Jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

16.7. Jamiyatning moliya yili 1-yanvardan boshlanadi va 31-dekabrda tugaydi.

16.8. Jamiyat:

-Jamiyatning ustavini, ustavga kiritilgan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni, Jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi qarorni, Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnomani;

-Jamiyatning o'z balansidagi mol-mulkka bo'lgan huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlarni;

-aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Jamiyatning boshqa boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlanadigan hujjatlarni;

-Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi haqidagi nizomni;

-Jamiyatning yillik hisobotini;

-emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorlarni;

-aksiyalar emissiyasi risolasini;

-buxgalteriya hisobiga doir hujjatlarni;

-tegishli organlarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarni;

-Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishlarining, Kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi va Boshqaruvi majlislarining bayonnomalarini, shuningdek Jamiyat ijro organining buyruqlarini;

-Jamiyatning affillangan shaxslari ro'yxatlarini;

-Jamiyat aksiyadorlarining reestrlarini;

-Jamiyat taftish komissiyasining, auditorlik tashkilotining xulosalari va hisobotlarini, nazorat qiluvchi davlat organlarining tekshiruvlari dalolatnomalarini saqlashi shart.

16.9. Jamiyat qonun hujjatlariga muvofiq boshqa hujjatlarni ham saqlashi shart.

17. YAKUNIY QOIDALAR.

17.1. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

17.2. Mazkur ustav O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

17.3. Jamiyatning ustaviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi.

17.4. Agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida mazkur ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari qoidalari qo'llaniladi.

"Uz-Dong Won Ko." QK AJ Bosh direktori:

Sotiboldiyev Q.N.

